
Targ'ibot tadbiri o'tkazildi

Farg'ona davlat universiteti katta majlislar zalida «O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaviy islohotlarning mazmun-mohiyati» mavzusida seminar o'tkazildi.

Unda Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektorlar va Farg'ona Davlat universiteti rahbarlari hamda 200 nafar ota-onalar, professor-o'qituvchilar va mahalla faollari ishtirok etdilar.

“Konstitutsiya meniki, seniki, bizniki! Konstitutsiya o'zimizniki!” shiori ostida o'tkazilgan targ'ibot tadbirida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasining eng muhim o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan fikrlar bildirildi. Qonun loyihasining mazmun va mohiyati keng tushuntirilib o'tildi.

2023-03-30 13:25:04